"YASHAMOQ" ROMANI TAHLILI

Ilmiy rahbar: ***Xakimova Farida***
TerDPI o'qituvchisi,
Choriyeva Zuhra
TerDPI talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy Xitoy adabiyotining yorqin namunasidan biri - Yuy Xua qalamiga mansub «Yashamoq» romanining mazmuni, asosiy g'oyasi va badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi.Asarda bosh qahramon Fugui hayotida keskin burilishlar, yo'qotishlar va singular orqali insonning yashashga bo'lgan irodasi, sabr- qanoati hamda hayotning haqiqiy qiymati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Xitoy adabiyoti, ijtimoiy roman, inson taqdiri, oila qadri, modern adabiyot, sabr, yo'qotishlar dramatizmi, oilaviy fojia

Annotation: In Uzbek literature the themes of modernity and youth are important. One of the works reflecting this is the story « To live». The theme main idea and artistic features of the work are analyzed.The story depicts events from the life the main character. Through conflicts and dialogues, the outhor shows a person's attitude to life patience, perseverance and the true value of emphasizing that life experience leads to maturity.

Key words: Modern literature, social era, human destiny, family tragedy, modernism, patience, conflicts, drama.

Аннотация: В узбекской литературе темы современности и молодёжи имеют важное значение.Одним из таких произведений является повесть «Жить». В ней анализируютя тема, основная идея и художественные особенности.В произведении через события, конфликты и диалоги

раскрываются отношение человека в жизни, его терпение и стойкость подчёркивается, что жизненный опыт формирует зрелость личности.

Ключевые слово:современная литература, социальная епоха, судьба человека, семейная трагедия, модернизм, терпение, конфликты, драматизм.

Bilamizki, badiiy adabiyotlar uzoq yillardan beri insoniyatning ruhiyatini, ma'naviyatini, hayotga bo'lgan muhabbatini shakllantiruvchi asosiy manba hisoblanib kelingan. Badiiy kitoblar orqali insonlarning hayotga bo'lgan muhabbati, oq- u qorani tanishi, ezgulik va yovuzlik o'rtasida farqlarni, Vatanga sodiqlikni, ota- onaga hurmatni anglaydi, shu bilan birga fikrlash doirasi kengayish natijasida har qanaqa sohada ishini topadi desak mubolag'a bo'lmaydi.Hayotimizda aksariyat insonlarning sevimli asari, ya'ni kitobi bor, chunki inson o'qib boshlagan asari odamni o'ziga shu qadar tortadiki, undagi bosh qahramonlar bilan birga yurasiz, jang qilasiz, yotasiz, turasi, idrok qilasiz, yig'laysiz, kulasiz.Maksim Gorkiy ta'kidlaganidek:» Kitoblar bizga yashashni, o'ylashni va his qilishni o'rgatadi».

Shuningdek, men uchun eng qadrli bo'lgan asar- Yuy Xuaning « Yashamoq» nomli romani hisoblanadi.»Yashamoq- bu shunchaki oddiy roman emas, bu asarda inson hayoti davomida har qanday sinovlarga tayyor turishi, iztiroblar qarshisida tik turishi, yashashga bo'lgan irodasi, matonati kuchli bo'lishiga undaydi.Asarning bosh qahramoni Figui Asli boy oiladan bo'lib, hayoti turli qiyinchiliklar bilan, sinovlar bilan o'tadi. Yo'qotishlarga duchor bo'ladi. U avvalo qimorbozligi tufayli, beparvoligi sabab hamma narsasidan ayriladi, otasidan, onasidan, rafiqasidan, farzandlaridan, mol- mulkidan. Xo'sh, shu joyda Fuguida ayb bor deb hisoblashimiz mumkinmi? « Qush uyasida ko'rganini qilar», «Qaytar dunyo»,- deganlaridek, Figuining otasi ham qimorboz bo'lgan, so'ng Figui ham vaqtini shaharda qimor o'ynab o'tkazardi. Shunday ekan, Yuy Xua ota-onalar farzandi

tarbiyasidan avval o'zlarini tarbiyasiga alohida e'tibor berishi lozim ekanligini uqtiradi. Shunday ekan, Figuining ham bu yerda aybdor deb qarolmaymiz. Aksincha, qahramon inson deb aytsak adashmagan bo'lamiz. U shuncha qiyinchiliklarga, yo'qotishlarga qaramasdan yashashda davom etadi. U hayotni qanday bo'lishidan qat'i nazar qabul qilishni o'rgandi.

Bu asarning kompozitsiyasi to'liq va mukammal yoritib berilgan. Asarning ekspozitsiya qismi mo'ysafid bilan bolaning dialogi, ho'kizlarga bo'lgan munosabati bilan boshlanadi. Asarning tuguni esa Fugui otasidan qolgan boylikni qimor o'ynab o'rkazib yuborishi bilan davom etadi. Voqealar rivojining kamol topishiga Fuguining boshdan kechirgan qiyinchiliklari , qahramon ichki kurashi davom ettirilishi, turli vaziyatlarda qaror qabul qilishi tobora takomillashib asta-sekin cho'qqiga (kulminatsiyaga) yetadi.Romanning menga yoqqan eng katta ta'sir qilgan jihati Figuining begunoh o'g'li vafot etishidir. Men bu o'limni o'sha paytdagi kishilar ongining, ma'naviyatining, ayniqsa « oliy tabaqali» kasb egalarining « ilmliligi» dan deb bilaman. O'sha paytlarda ham tabaqalanish jarayoni bo'lgan, yo'qori mansablar ko'tarilib, kambag'allarga past nazarda qaragan. Hukumat amaldorining xotini o'g'ir ahvolda ekanligi, tuzalsa shifokorlarga yaxshigina to'lab berishini bilgan mansabparastlar bir kambag'alning jonini tikib yuboradi.Bu asar shunchalik insonga ta'sir qiladiki, yig'lamay o'qishning iloji yo'q, har sahifasini o'qiganda yuragingizni siqib qo'yadi, ammo o'sha og'ir sahifalarda ham umid borligini ko'rasiz. Va nihoyat asarning yechimi Fugui butun oilasidan ayrilgan holda ho'kizi bilan yolg'iz qoladi. Lekin shunga qaramay hayot uchun kurashishni davom ettiradi. Bu asarda menga eng yoqqan jumla Figuining onasi tilidan aytilgan «O'zingni baxtli his qilsang, kambag'al bo'lish uyat emas» jumlasidir.Fugui hamma narsasidan ayrilgan vaqtida onasi

taskin berishi uchun shu jumlani aytadi.Inson hayoti davomida doim o'zini baxtli his qilishi kerak.Baxt - oddiylikda. Olloh bandalarini berib sinaydi, olib sinaydi.Bu hayotda inson o'zini baxtli his qilgandagina hayotning lazzatini totadi. Mitsa Mitsevaning «Yuy Hua's to live: Fugui's journey to Self transcendence nomli maqolasida shunday deydi: «Figui o'zini yengishi va o'zidan balandroq ma'no topishga intiladi.Figui avval boylikni yo'qotadi, keyin yaqinlarini.Ammo shu yo'qotishlar uni ma'naviy jihatdan balandlashtiradi». Bu romanga ko'plab professor olimlar shaxsiy ta'riflar bergan. Jumladan, filologiya fanlari doktori, yozuvchi Ulug'bek Hamdam aytganidek: «Boshingga nima ish kelsa, kelsin, sen hayotni tanla, yashamoqni tanla , yashashda davom et, yasha». Xulosa qilib aytganda, «Yashamoq» asari hayotning o'ziga xos qiyin va go'zal tomonlarini chuqurroq o'rganishga yordam berdi. Men bu asar orqali sabr, iroda, yashash istagining naqadar muhimligini angladim. Shu sababli, bu roman menga yoqqan asarlardan biri bo'lib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maksim Gorkiy « Odamlar orasida» asari Sank- Peterburg .1916- yil
2. Mitsa Mitseva « Yuy Hua's to live: Xu Fugui's Journey to Self transcendence». 2025.
3. Eshmamatovna, E. S. A GLANCE TO THE CREATIVE WORKS OF THE POET TESHA SAYDALIYEV. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 87.
4. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, *11*(12), e2676.

5. GABRIEL GARCIANING "ATIRGULNING TIKONI" ASARI. (2025). *Ustozlar Uchun*, *85*(7), 223-225. https://journalss.org/index.php/ust/article/view/10194
6. Saidmuradova, S., & Madina, T. L. (2024). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI POETIKASI. *PEDAGOGS*, *57*(1), 147-152.
7. O'RTA OSIYODA NOTIQLIK SAN'ATI. (2025). *Ustozlar Uchun*, *85*(7), 39-41. https://journalss.org/index.php/ust/article/view/10091
8. Xurramovna, Q. G., & To'raqulovna, D. M. (2025, December). "FARHOD VA SHIRIN" DOSTONIDAGI ONOMOSTIK BIRLIKLARNING BADIIY-POETIK AHAMIYATI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*. (Vol. 1, No. 5, pp. 58-61).
9. Dilshoda, A. (2025). MUHAMMAD YUSUF IJODINING ADABIYOTIMIZDA TUTGAN O 'RNI. Global Science Review, 1(1), 388-392.
10. Sarvinoz, J. (2025). " ALKIMYOGAR" ASARIDAGI RAMZIY OBRAZLAR TAHLILI. *Global Science Review*, *3*(4), 342-344.
11. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SOZ TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, *1*(4), 34-37.
12. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2024). TARIXIY MANBALARDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIIY TALQINLARI. IMRAS, 7(6), 56–60.
13. Zafariddin, Temirov, and Xujanova Nasiba. "The Triumph of Light Over Darkness." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, vol. 33, 20 Feb. 2025, pp. 34-37.
14. Komilovna M. S. Hydronims Formed by the Method of Syntactic and Transonimization //World Bulletin of Social Sciences. – T. 37. – C. 16-18.